

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

ADABIYOTSHUNOSLIK KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etildi”

O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani

_____ I.Xudoynazarov

“ _____ ” _____ 2015- yil

5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi
IV bosqich 011-11- guruh talabasi

Murtazayeva Fazilatning
“Saddi Iskandariy” dostonidagi hikoyatlar tahlili
mavzusida yozgan

REFERAT ISHI

Talaba _____ Murtazayeva F.

Ilmiy rahbar _____ kat.o‘qit.F.Qiyomov

“ _____ ” _____ 2015- yil

Qarshi - 2015

REJA

Kirish.

1. “Xamsa”ning yaratilish tarixidan
2. ”Saddi Iskandariy” dostonidagi Iskandar obrazi
3. Dostondagi hikoyatlarning g‘oyaviy-badiiy talqini

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH

Mustaqillik adabiy merosimizni yangicha yo'nalishda o'rganish istiqbollari ochib berdi. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek : “Biz ma'naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o'zlikni anglashning o'sishidan, xalqning ma'naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy tabiiy jarayon hisoblaymiz” .

Milliy o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lash esa mustaqil jamiyatimizda barkamol avlod tarbiyasida davlat siyosati darajasida ko'tarilgan jiddiy masala sifatida qayta-qayta e'tirof etilmoqda.

Asrlar osha yangi ma'no qirralarini tadqiq etilishi bilan sharq mumtoz adabiyotida alohida o'ringa ega bo'lgan Alisher Navoiy asarlarining ko'lami kengligi va davrlar o'tishi bilan yana yangi talqinlarga asos bo'la olishi kishini beixtiyor taajjubga soladi. Ana shu maqsadda shoirning buyuk “Xamsa” asaridagi “Saddi Iskandariy” dostonidagi hikoyatlarni g'oyaviy- badiiy talqin qilishga harakat qildik va bu referativ ishimizning dolzarbligini ta'minlaydi.

1. “Xamsa” ning yaratilish tarixidan

Alisher Navoiyda yirik asarlar yaratish havasi juda erta shakllangan. Bu o'rinda go'dak Alisherda Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” dostoni kabi diniy-ma'rifiy va tasavvufiy-falsafiy mazmundagi asar yaratish orzusida ulug' fors-tojik mutasavvif shoirining asarni yod olgani haqidagi ma'lumotlarga diqqatimizni qaratishimiz mumkin.

She'riyatning kichik janrlaridan yirik asarlarga o'tish ishtiyoqi Alisher Navoiyning yoshlik yillaridayoq fikri-zikrini band etgan. Shu sababdan ham ko'ngli Nizomiy va Xisrav Dehlaviy “Xamsa”lari sari moyil bo'lganini eslab, keyinchalik shunday yozgan edi:

... Vale qoni' o'lmay ushoq ishiga hech,
Dimog'imda erdi ulug' pech-pech.
Ne maydon aro sursam erdi samand,
Havosin ko'ngul ilmas erdi pisand.
Ne bo'stonki, sayr ichra mavjud edi,
Haqoratdin ollimda mardud edi.
Xayolimda kishvarsitonlig' kirib,
Mamolikda sohibqironlig' kirib.
Bu andeshadin erdi ko'nglumda shayn,
Ki, bo'ldi ko'nglum moyili “Xamsatayn”

[17,6]

XV asrning 80-yillari o'rtalarida esa, Navoiy katta jasorat bilan “Xamsa” dek ulkan asarni tez sur'at bilan qisqa muddat ichida o'z ona tilida yarata olishi haqida aytib o'tadi. Navoiy bu haqda eng yaqin va sirdosh kishisi Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan shaxsiy she'riy maktubida ilk bor bayon qiladi. Bu maktub haqida adabiyotshunos Abdurashid Abdug'afurov shoir hayotining 1450-1460 yillar pallasini mukammal o'rganadi, o'z fikr-mulohazalarini bildiradi.

Sharq xalqlari adabiyoti tarixida beshlik dostonlar turkumini yaratish an'anasi Alisher Navoiydan oldin shakllangan edi. Bu an'ana sal ka much yuz

yillik jarayonni boshidan kechirgan. Ozarbayjon xalqining shoiri Ilyos Yusuf o'g'li Nizomiy Ganjaviy (1141-1205) "Panj-ganj" ("Besh baho xazina") asarining yaratilishi badiiy so'z san'ati tarixida inqilobiy hodisa, mo'jizaviy voqea hisoblanadi. Nizomiy Ganjaviyning bu beshligi fors-tojik tilida yaratilgan, shunday qilib, Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj" asari sharq xalqlari adabiyoti tarixida xamsachilik an'anasiga asos soldi. Xamsa ijod etish besh doston yozish bo'libgina qolmay, bu adabiy janrga xos bo'lgan meyorlar bevosita "Panj ganj" ning xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Bunga ko'ra, dostonlarning nomi, janri, vazni, voqealarning tizimi, qahramonlari va tuzilishi bilan Nizomiy Ganjaviy beshligi talab-tamoyillariga o'xshash bo'lishi kerak. Shuningdek, yangi, ijod etilgan xamsa ulug' ozar shoiri shoh asarining takrori yoki taqlidiy nusxasi emas, balki mavzu va g'oyalari, badiiyati nuqtai nazaridan tamoman yangi asar bo'lishi lozim. Bulardan tashqari, xamsa muallifi so'z san'atining ilohiy, qudratini teran his qilgan holda uning ravnaqini yanada yuksak cho'qqilarga ko'tarishga o'z asari bilan xizmat qilishi kerak edi, sharq adabiyotida bu nihoyatda murakkab va o'ta talabchan an'anaga aylanib qoldi.

Musulmon mintaqa xalqlari adabiyotida bu adabiy janrning vujudga kelishi sabablarini taniqli adabiyotshunos olim, akademik B.Valixojayev quyidagicha izohlaydi : " Xamsa " deb ataluvchi asarlarning maydonga kelishigacha, ya'niy XII asrgacha bo'lgan davrda turkum qissa va dostonlardan iborat "Halila va Dimna", "Sindbodnoma" (Ro'dakiy), "Shohnoma" (Firdavsiy), "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib) kabi forsiy va turkey tillarda bitilgan turkum asarlar mavjud edi.

Eslatilgan asarlarning ayrimlari ko'p sujetli ("Kalila va Dimna", "Shohnoma") asarlaridir. Xuddi ana shu davrda xamsa o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan badiiy janr sifatida shakllanadi. Shuning natijasida u ham bir sujetli, ham ko'p sujetli hamda maqolalardan iborat asarlardan tashkil topdi, ya'ni qurilishi jihatdan ko'p qirrali janr bo'ldi. Uning asosiy mavzusi ham insonning ko'p qirraligi faoliyatini badiiy obrazlar misolida aks ettirishidan iboratdir.

Ko'rinadiki, "Xamsa" inson kamolotining serqirra jihatlarini o'zida to'la aks etish imkonini hosil qilgan adabiy janr sifatida vujudga kelgan. Bundan tashqari bir va bir necha syujetli asarlarga xos bo'lgan xususiyatlarni o'zida mujassam etdi va ijodkorning yana o'sha komil inson xususidagi falsafiy, ilohiy-irfoniy, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta'limiy qarashlarni mufassal bayon etishi uchun tarkibida mavjud bo'lgan syujetsiz maqolatlar bilan mukammalashdi. Ayni choqda xamsa tuzilishiga aloqador bo'lgan bunday unsurlar bir-birini taqozo qilishi bilan ahamiyatlidir. Jumladan, Shayx Nizomiyning "Panj ganj"i "Maxzan ul-asror" ("Sirlar xazinasi") sarlavhali dasturiy doston bilan boshlanadi. Mazkur asar takibidagi maqolat-u hikoyatlar uning "Panj ganj"ining, barcha dostonlari uchun rejanoma vazifasini o'tashini ta'min etgan. Ana shu shoh asarda xalq maqollari kabi sayqallangan va lo'nda xulosalar tarzida teran badiiy ifodalangan dolzarb umuminsoniy mavzu-muammolari turkumning "Xusrav va Shirin", "layli va Malnun", "Haft paykar" ("Yetti go'zal"), "Iskandarnoma" kabi masnaviylarda ham bayon etilgan. Shuning uchun ham zohiran alohida-alohida va mustaqil dostonlari maqomida ko'zga tashlanuvchi bu asarlar uchun ana o'sha "mustaqillik" o'ta nisbiy tushunchadir. Ular bizningcha, barcha a'zolari bir-biri bilan uzviy aloqador, yaxlit yagona jismni eslatadi. Aslida ana shu bosh tamoyil xamsaning sharq xalqlari adabiyoti tarixida mustaqil janr maqomida ko'rinishning tayanch omilidir.

Alisher Navoiy yirik jamoat arbobi sifatida Xuroson mamlakatining buyuk davlat darajasiga ko'tarilishi, el-yurt osoyishtaligi va mulk ma'murligi yo'lida jonbozlik ko'rsatdi. Mana shunday ulug' ushlardan xoli bo'lgan paytlarida ustoz Sadriddin Ayniy ta'biricha, uyqu va istirohat soatlari hisobidan sevimli mashg'uloti badiiy ijod bilan shug'ullandi. Tabiiyki, Husayn Boyqaro mamlakatidagi siyosiy jihatdan beqarorlik shoh asar ustida qizg'in ijod bilan mashg'ul bo'lgan Alisher Navoiyni ham befarq qoldirishi mumkin emas edi. Buyuk shoir ulug' xamsanavis salafлари zimmasida bunday mas'uliyatli vazifa (davlatni idora qilish ishlariga aralashish) bo'lmagani, ularda mavjud bo'lgan imkoniyat nuqtai nazaridan masalaga yodashib "Xamsa"ning ijod etilishiga

sarflangan vaqtni hisob qilsak, olti oyga bormasligini e'tirof etadi. Bu ta'kid zamirida, bizningcha, umrining "Shabbob ayyomi" da shoirning ustozlari va otaxoni darvesh Sayyid Hasan Ardasheriga yozgan maktubidagi o'z ijodiy salohiyatidan iftixor hissini tuyib, ehtiros bilan bitilgan baytlari (bir kunda yuz, ikki yuz bayt bitish holva yeyish bilan barobar...) mubolag'a ermasligiga ishora mavjud.

"Panj ganj"ga to'la javobiya yozgan shoirlar qatorida fors-tojik adabiyotining ulug' namoyondasi Nuriddin Abdurahmon Jomiyning nomi ham yuksak ehtiromga sazovor. Bu buyuk so'z san'atkorining "Haft avrang"idagi ayrim dostonlari Alisher Navoiyning ba'zi masnaviylari bilan oldinma-keyin yozilgan bo'lib, har ikkala zamondoshning shoh asarlari xamsanavislikda yana bir yuksak cho'qqining zabt etilishiga sabab bo'ldi. Hojui Kirmoniy (1281-1352), Mavlono Ashraf (vafoti 1450), Abdulla Hotifiy (vafoti 1521) kabi ijodkorlar ham Nizomiy Ganjaviyning "Panj ganj"iga to'la javob aytish baxtiga muyassar bo'lganlar. Biroq xamsachilik tarixida bu qalamkashlarning hammasi birday mavqega ega emas. Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy xamsalarining shuhrati ancha baland bo'ldi. Buning boisi, bizningcha, o'sha mualliflar qalami sehri, iqtidorining balandligi, fikriy teranlik, tasvir mahoratining yuksakligi, umuminsoniy g'oyalar, axloqiy-ta'limiy, ilohiy-irfoniy qarashlarning bog'liqligidadir. Bizning bu ta'kidimiz Hoju Kirmoniy, Mavlono Ashraf, Abdulla Hotifiylarning beshliklari xususida noto'g'ri taassurot uyg'otmasligi lozim. Mazkur mualliflar asarlarining shuhrat qozonishida o'sha noyob badiiy yaratmalar qo'lyozma nusxalarining kamyobligi, bugungi kunga qadar tugal holida nashr yuzini ko'rmaganligi, yetarli darajada ommalashmayotganligi salbiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ajab emas.

2. "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandar obrazi

Buyuk Sharq shoirlarning Iskandar mavzuiga qayta-qayta murojaat qilganlar. Yuksak fikr – g'oyalarni ulug' siymolar faoliyati timsolida ko'rsatish adabiyotda ko'p uchraydi. Chunki bu siymolarning qilgan ishlari, bir tomondan, ularning kuchli tabiatidan darak bersa, ikkinchi tomondan, ularni yetishtirib chiqargan voqealarga boy tarixiy sharoitning mazmunidan kitobxonni xabardor qiladi. Iskandar mavzui Navoiyga o'z orzu-istak va ijtimoiy-falsafiy fikr-mulohazalarini bayon qilish uchun mos kelgan. Shuning uchun ham bu mavzuga shoir qayta-qayta murojaat qilgan. 1483-yili yozilgan "Hayrat ul- abror"da Iskandar hikoyasi keltiriladi. Bu hikoya "Iskandarning yeti iqlim mamoligini panjai tasarrufiga kiyirg'oni va xoliy ilik bila olamdan rihlat markabin surg'oni" [27,243] to'g'risidadur.

Bu hikoyada Iskandar butun dunyoda hukmron bo'ladi. Uning yurish qilib borib o'ziga boysundirmagan biror yeri qolmaydi. Shohlar Iskandarga qul bo'ladilar. U ham shoh, ham vali, ham nabiy edi. Ammo o'layotgan paytida Iskandarga hech kim yordam bera olmaydi . Barcha hukamo va bandalari yashil bog' ichida qoldilar, podshoh esa qora tuproq ichiga kirdi. Buni oldindan sezgan podshoh esa o'z yaqinlariga vasiyat qiladi: "Uning jasadini qabrga eltishdan oldin qo'lini tobutdan chiqarib qoysinlar, tokim, ko'rgan odamlar bilishsinlarkim yetti kishvar shohi bu dunyodan hech narsa olib ketmayapti ".

Bu hikoya oz so'zli ixcham misralarda nihoyatda chuqur va mazmundor fikrlarni ifodalaydi. Hikoyatdagi tasvir ta'sirli ziddiyatlar asosida qurilgan.Iskandarning vasiyati sharq poeziyasida mashhurdir. Keyinchalik Navoiy uni ikki marotaba " Saddi Iskandariy" dostonida ham takrorlaydi. Bu haqda keyingi boblarimizda fikr yuritamiz.Demak, inson kim bo'lishidan qat'iy nazar dunyoga hirs qo'ymaslik kerak. Baribir bu dunyodan quruq qo'l bilan ketilishi shoirning falsafiy va tarbiyaviy qarashlarida ifodalab beradi.

Iskandar to'g'risida to'laroq ma'lumotlar Navoiyning "Tarixi muluki Ajam"

(“Ajam podshohlari tarixi”) asarida ham uchraydi. Unda Navoiy Ajam podshohlarining qisqacha tarixi va tarifini keltiradi. Navoiy bu kitobining manbalarini ham ko’rsatib o’tadi. Ular Jaloliyning “Nizom –ut-tavorix ”, Imom Muhammad G’azzoliyning “Nasihah ul-muluk”, Shayx Bu Ali Miskavayxning “Odob –ul- a’rob-val-furs”, Hammidulloh Al Mustafiyning “Muntaxab ut-tavorix” va qozi Bayzoviy, degan muarrixning asari kabilardir . Bu kitoblar o’z davrida ilm ahli o’rtasida ancha mashhur bo’lgan.

Navoiy Iskandarning tug’ulishiga oid xilma-xil voqealarni ham bayon qiladi.

Rum podshohi Faylaqus (Filat)ning qizi bir oz vaqt Eron hukumdori Doro nikohida bo’ladi, so’ng Doro uni otasi huzuriga qaytarib jo’natadi. Uning Dorodan homilasi bo’ladi. Otasi Faylaqusning uyiga qaytgach ayol o’g’il tug’adi, u bola Iskandardir. Faylaqus uni o’z o’g’li deb e’lon qiladi, uni tarbiyalab voyaga etkazadi.

Iskandarga bag’shlangan bobda ham uning tug’ulishi to’g’risidagi bir qator ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, Bonakatiy kitobida va “Devon un-nasab”da Iskandarni Hirmisi Rumiyl o’g’li deyilgan. Hirmisning otasi Lafti Binni Yunon binni Gorax binni Yofas binni Nuhdir. [27,246] . Boshqa bir rivoyatda quyidagi tafsilotlar beriladi: Bozur binni Albom bilan Iskandariya podshohi o’rtasida muttasil adovat davom etar edi. Ikki o’rtada ittifoq va ahllik o’rnatish maqsadida Bozur Afliyunning qiziga uylanadi. Ammo ko’p o’tmay u xotinini otasining uyiga qaytarib yuboradi. Homilador ayol yo’lga o’z hamrohlari bilan notinch joylardan o’tayotganida uzoqdan qora ko’rinadi. Uni qaroqchilar deb oylab hamma qo’rqib ketadi. Shu paytda ayolning homilasi tushadi odamlar chaqaloqni bir lattaga o’rab chuqur boshida qoldirib, qochadilar. U qora sahro quyuni bo’ladi. Yolg’iz qolgan chaqaloqni tasodifan kelib qolgan echki emizib yuradi. Bir kuni echkining egasi qari kampir uni axtarib kelib bolani ko’rib qoladi va bolani uyiga olib ketadi. Kampir bolani tarbiyalab voyaga etkazadi. Shu bola Iskandar bo’ladi. Iskandar Afliyun hukmron bo’lgan shaharga kirib kelayotganida, qasr tomida turgan onasining unga ko’zi tushib qoladi. Mehrdan ayolning ko’kragiga sut keladi, u o’z o’g’lini taniydi. Onasi Iskandarni olib qoladi.

Navoiy Iskandarning “Hayvon suyuni (suvini)” qidirganligini aytadi. Ammo bu suvini Ilyos va Xizr topadilar, u Iskandarga nasib bo’lmaydi [27,247]. Kitobda yana Iskandarning vasiyati keltiriladi, shuningdek uning qabri Iskandariyaga ekanligi ham aytib o’tiladi.

“Tarixi muluki ajam”da Navoiy Doro to’g’risida ma’lumot beradi. Iskandar bilan Doro o’rtasidagi urushni, Doroning o’z odamlari tomonidan o’ldirilishi va uning o’limi oldidan Iskandarga qilgan vasiyatini bayon etadi. Iskandar to’g’risidagi bob ham yakunlovchi xususiyatga ega bo’lgan masnaviy bilan tugallanadi. Bu yerda Navoiy Iskandarning barcha qilgan ishlaridan ikkitasini, “Saddi yajuj”ni bino qilgani va vafoti oldidan qilgan vasiyatini ta’kidlab o’tadi.

Navoiy Iskandarning umri o’ttiz olti yil, hukmronligi davri esa o’n uch yil deb beradi. U Xisrav Dehlaviyning “Oyinai Iskandariy” kitobida Iskandar saltanati muhlati besh yuz yil deb ko’rsatilganini ham eslatib o’tadi. Navoiy o’zining “Saddi Iskandariy” dostonini yozganligi to’g’risida “Tarixi muluki Ajam”da shunday deydi: “Bu faqir ham “Saddi Iskandariy”da ul ikki buzrukvor davrini yozib muarrixlar ahvoliga tarjih qilib nazm adosiga qaror beribmen”.

“Saddi Iskandariy” dostonining kirish qismida Eron shohlari va sulolalarining qisqacha tarixi va ta’rifi berilgan.

Xulosa qilib shunday fikrga kelish mumkinki, Navoiy Iskandar mavzusiga ko’p e’tibor bergan. Bu timsol orqali o’zining ijtimoiy-falsafiy va ta’limiy-axloqiy tarbiyaviy qarashlarini bayon qilgan. Ana shu hol “Xamsa”ning yakunlovchi dostoni “Saddi Iskandariy” ning yozilishiga sabab bo’ldi deyish mumkin.

3. Dostondagi hikoyatlarning g‘oyaviy-badiiy talqini

“Saddi Iskandariy” dostonida har bir voqeaning tasviridan so‘ng uni sharhlovchi, mohiyatini tushunishga yordam beruvchi umumlashma tarzidagi bir ibratli voqea yoki hikoya keltirilgan, ularning ba’zilari tarixiy shaxslar hayoti va tajribasiga oid bo‘lsa, ba’zilari sof xayoliy, allegorik mazmunga egadir. Ayrim hikoyalar esa xalq og‘zaki ijodiga mansubdir. Bu hikoyalar o‘z mazmuni, mohiyati jihatidan oldingi bobdagi voqealarga tutashib ketadi, o‘zidan keyin keladigan hikmatlarga zamin tayyorlaydi, Shu jihatdan dostondagi hikoyatlarni shartli ravishda uchga bo‘lib o‘rganish mumkin. Masalan:

1. Tarixiy shaxslar hayotiga oid hikoyatlar .
2. Xayoliy, allegorik xarakterga ega bo‘lgan hikoyatlar.
3. Xalq og‘zaki ijodiga mansub bo‘lgan hikoyatlar.

Tarixiy shaxslar haqidagi hikoyatlarga “Iskandar va gado”, “ikki vafoli do‘st”, “Sulton Abu Sayyid Ko‘ragon”, “Ardasher”, “Baxromgo‘z” kabi hikoyatlarni kiritishimiz mumkin.

Ramziy xarakterdagi hikoyatlarga “Baliqlar hikoyati”, “Bulbul hikoyati”, “Kabutar hikoyati”, “Qo‘li kesilgan kishining hikoyati” kabilarni kiritish mumkin.

Xalq og‘zaki ijodiga mansub hikoyatlariga “Majnun va Layli”, “Luqmon” hikoyatlari kiradi.

Hikoyatlar dostoninig badiiy jismini mustahkamlaydi va unga rang-barang husn bag‘laydi. Shu bilan birga dostonni o‘qish va tushunishni yengillashtiradi. Kitobxonga ibratli va hordiq beruvchi badiiy material sifatida xizmat qiladi.

“Saddi Iskandariy” dostonida o‘n yettita she‘riy hikoyat keltirilgan.

Hikoyatlar g‘oyat qisqa, so‘zlari nihoyatda ixcham, ammo mazmun va fikr juda aniq, xulosalar lo‘nda qilib berilgan. Hikoyatdagi har bir personaj o‘ziga xos xarakteristika, o‘ziga xos ta‘rifga ega . Hikoyatlarning ifoda uslubi dostoninig umumiy ruhi va uslubiga to‘g‘ri keladi.

Dostonning boshlanish qismida “Iskandar va gado” haqidagi hikoya keltiriladi. Bu hikoyatni tarixiy shaxslar haqidagi hikoyatlarga kiritamiz. “Iskandar va gado hikoyatida shoir dunyoning bevafoqligi, uning shan-u-shavkatiga xirs qoymaslik kerakligini takitlaydi, insonlar barchasi barobar, ayniqsa, ular yer qariga tortilganda bir-birlaridan mutloq farq qilmaydilar. Navoiy bu hikoyatni oʻz guvohligi bilan boshlaydi:

Eshitdimki, Iskandari nomdor

[21,99]

Ayrim boshqa hikoyalar ham xuddi shunday eslatma bilan boshlanga. Bu muallif bilan kitobxonni yaqinlashtiradi, naql qiluvchining kitobxonga murojatini yanada taʼsirchangroq qiladi, hikoyatning qaysi manbadan olinganini aytib kitobxonni shunga ishontiradi.

Iskandar oʻzi bosib olgan mamlakatda unga boy sungan podshohni oʻz oʻrniga qoldirar edi. U Magʻrib zaminini egallab olganida katta qatlam boʻladi. Oʻsha yurtning podshosi xalok boʻladi. Iskandar xalqdan podshohning urugʻlaridan biror kishi bormi deb soʻraydi. Xalq bunday kishi bor ammo u xalq ichidan chiqib ketgan:

Tiriklar orasida qilmas ubur,

Matofi emas qayri eski qubur

[21,100]

deb javob qildilar. Bu gaplar bundan oldingi voqealarning mazmuniga hamohangdir, Iskandar otasining vafoti, dunyodan vafo istashning befovdaligi toʻgʻrisidagi mulohazalar soʻngidan tiriklardan uzoqlashib, qabristonda maqom tutgan podshahzodatoʻgʻrisidagi hikoya oʻrtasida zoʻr mantiqiy bogʻliqlik mavjuddir, chunki bu odam:

Hamono tiriklarda koʻrmay vafo,

Qubur ahliga aylamish iktifo

[21101]

Gado toji taxtdan voz kechgach shu qarori bilan u oʻzini baxtiyor his qiladi.

Boshi toj tarkin qilib ixtiyor,

Bo'lib tarki toji bila baxtiyor

Kechalari yotmoq uchun unga bir vayrona ham yo'q, kunduzi nima bilan ovqatlanishi ham nama'lum, u hech kim bilan ulfatchilik ham qilmaydi. Ammo u xalq g'avg'osidan kulfat chekadi, xalayiqa juda dono nasihatlar qiladi. Iskandar bu darvesh bilan uchrashadi, unga chuqur nigoh tashlaydi. Darveshning:

Yalang erdi boshiyu oyog'i yalang,
Yaqo chokidin ko'ksi dog'i yalang.

Jahon shug'li gardiga silkib etak,
Tutib ikki ilgiga ikki so'ngak.

[21,101]

Bu uchrashuvda ikki shoh bir-biriga ro'baro' turibdilar. Biri shohona , biri darveshona suratdadur Iskandar darveshdan:

Dedi: "Bu so'ngaklardan afsona ayt,
Ne sursam javobin aning yana ayt"

[21,101]

deb so'raydi. Darveshning javobi butun isyonkor qadimiy sharq falsafasining mohiyatini tashkil etuvchi fikrdan iborat:

Dedi: "Go'rlardan qilurda guzar",
Ne bu so'ngaklarga soldim nazar.
Zamiringa lekin nihon qoldi buki,
Shohning qayudir, gadoning qayu"

[21,102]

Darvesh Iskandarning shohlikka qabul qilish to'g'risidagi taklifini rad qilib deydi:"Songidan o'lim kelmaydigan hayot, ortida keksalik bo'lmagan yoshlik, qashshoqlik bilan almashilmaydigan boylik, keyinidan g'am kelmaydigan shodlik yo'qdir, shu tufayli u faqr sarmoyasi qarshisidan shohlikni pisand etmaydi".

Ki, tark aylabon faqr sarmoyasin,
Pisand etgamen shohlik poyasin?

[21,102]

Iskandar darvesh himmatining buyukligiga tan beradi. Ana shunday hikmatining balandligi, hayot falsafasining tub mohiyatini anglay bilishgina kishiga ulug'lik bag'ishlashini Navoiy yana bir bor ta'kidlab o'tadi.

Gadoyeki, bo'ldi buyuk himmati,

Anga past erur shohlik rif'ati.

Chu himmat baland o'ldi ersa faqr,

Ko'ziga erur asr shohi haqir.

[21,103]

Navoiy shohlar shavkatini insonning yuksak himmatidan past qoyadi. Har bir kishining turmush qarama-qarshiliklarining chuqur idrok qilib, unga sog'lom nazar bilan qarab, ularning mohiyatini anglab, amal qilishi kerak ekanini tushuntiradi. So'fiylik falsafasining gadolikni shohlikdan ustun qoyish to'g'risidagi ta'limoti bu hikoyada o'z ifodasini topgan. Bunday fikr "Saddi Iskandariyga" boshqa hikoyalarda ham uchraydi. Ammo Navoiy odamlarni gadolik sari yo'lamoqchi emas, balki dunyo ishlariga tafakur bilan haqiqiy himmat va insoniylikning undan baland turishini ko'rsatmoqda, Navoiy o'zi oliy aristokratiyaning namoyondasi edi. Uning birinchi kitobxonlari xon va xonzodalar bo'lganlar. Shunday sharoitda yashagan shoirning shohlik saltanatini yerga urib uni gadolar himmatidan tuban ekanini tasdiqlash misli ko'rinmagan jasorat dadillik va ularga asos bo'lgan yuksak obro' va e'tiborini talab qilar edi. Navoiyda shularning hammasi bo'lgan. Ma'lumki, Navoiyning do'sti, homiysi, hamfikri, uning birinchi o'quvchisi Sulton Husayn Boyqaro edi. Ular qanchalik yaqin bo'lmasinlar saltanatga og'ir botadigan g'oyadagi asar hukmronlarga yoqmasligi aniq edi. Ammo Navoiy yuqoridagi g'oyani dadil bayon qilmoqda. Demak, u Husayn Boyqaro shaxsan bu narsalarni to'g'ri qabul qiladi, deb ishongan. Uning shahsiy idroki fahm va iste'dodini ko'zda tutgan. Ayni zamonda Navoiy mutafakkir murabbiy sifatida shoh va shaxzodalarni to'g'ri yo'ga boshlamoqchi, ularda saltanat g'ururini pasaytirmoqchi, ularni hayotga, odamlarga to'g'ri qarashga o'rgatmoqchi bo'lgan. Saray muhitida yashagan, shoh dargohiga yaqin

bo'lgan shoirning bunday shoxlikka til tegizadigan fikrlarini baralla bildirishi, faqat shoirning sof qalbi va otashin jasoratidagina emas, balki ularni qabul etuvchi sharoit yarata olganida hamdir. Iskandar va gado hikoyatidan keyin keladigan hikmatdan Iskandarning maqsadga qaysi maqom yaqinroqdir, degan savoliga Arastu javob berib deydi:

Dedi, xalqdin o'zni fard aylamoq,

Fano qoyi yo'lida gard aylamoq.

[21,103]

Arastu bu yerda har bir ishning o'z mavqeyida bo'lishi zarur, deb hisoblaydi. Yana u tushuntiradiki, kishi o'zini maqsadi yo'lida qurbon qilsa ham arziydi, chunki kishi o'zi yo'q bo'lib ketsa-da, uning maqsadi abadiy qoladi:

O'zini chunki maqsad aro qildi yo'q,

O'zi qolmayin, qoldi maqsadu o'q.

[21,104]

Navoiyning yuqoridagi fikrlarni bildirishga imkon beruvchi ijtimoiy mavqeyi bor edi. Yana u maqsad yo'lida o'zini qurbon qilishga ham tayyor edi. Uning maqsadi hamisha kishilarga hayot haqiqatini ko'rsatish, ularni oliy insoniylik, hayr va adolatga chorlash edi.

Podshohlar faoliyatiga oid fikrlar dostonidagi boshqa hikoyatlarda ham bor. Ikki yor hikoyati, Sulton Abu Sayd Ko'ragon hikoyati, Ardasher hikoyati, Bahromgo'r hikoyati shular jumlasidandir. Ushbu hikoyalarda ma'lum voqea orqali shohga nasihat qilinadi.

Ikki vafoli yor to'g'risidagi hikoyatda Chingizxon bilan Xorazmshoh o'rtasidagi urush tufayli ko'p odamlarning boshi kesilgani aytiladi. Shunday paytda ikki vafoli do'st o'z jonini fido qilib bir-birining hayotini oz fursatga bo'lsa-da, saqlab qolishga intilganlar. Navoiy ikki do'st darveshni ikki dushman shohdan yuqori qoyadi, ularning bir-biriga sadoqati, jahon ahlining boshidan dushmanlik qilichining qaytarilishiga olib keladi. Shuning uchun shoir ularni yuksak himmat egasi deb biladi. Ammo shuni alohida uqtirish zarurki, Navoiy noto'g'ri bo'lgan sifatlarini keltirmaydi, keltirganda ham o'zgalar orqali haqoniy

voqealar xulosasi orqali keltiriladi. U asosan podshohlar faoliyati qanday bo'lishi kerak, qanday usulda davlatni boshqarish amalga oshirilsa, elga ko'proq foyda bo'ladi, degan mulohazalarni bildiradi. Navoiy hech qachon podshohlik hokimiyatini inkor etib yoki unga qarshi chiqqan emas. U zolim va adolatsiz podshohlarni tanqid qilgan, hukmronlari adolatsizlikdan hazar qilishga, xalqparvarlik, adolatparvarlik yo'lini tutishga astoyidil da'vat etgan. Haqiqatgoy shoir ikki hukmron o'rtasida bo'lgan mojarolarni berkitmaydi, aksincha, u o'sha mojarolarni qanday qilib bartaraf qilish mumkinligini ko'rsatib beradi.

Iskandar Arastudan, garchi muxolifat mamnu bo'lsa-da, nizo mumkin bo'lgan fursat ham bo'ladimi, deb so'raydi. Bu savolga Arastuning javobi Navoiyning ana shu murakkab masalaga munosabatini bildiradi. Elga zarar bo'ladigan narsaning oldini olish kerak. Shu maqsadda barcha harakatni qilib ko'rish kerak, ammo:

Muning birla ham topmasa intino,

Bo'lur vojib ul lahza qilmoq nizo.

[21,156]

Bu nizo ham o'sh maqsadni elga zarar yetilishining oldini olish niyatidagina mumkindir.

Navoiy hukmronlari aqlli, tadbirkor, xushyor bo'lishga chaqiradi. Badbinlik, ko'pchilikka g'amxo'rlik qilmaydi, uzoqni ko'ra bilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishini u Abu Sayd Ko'ragon hikoyati orqali bayon qilib beradi. O'z sipohlarining talablarini ado etmagan, ularga keragicha diqqat e'tibori ko'rsatmagan Abu Sayd Ko'ragon urush paytida o'z sipohlarini boshqara olmaydi, dushmandan yengilib boshi kesildi. Navoiy bu voqeadan bunday xulosa chiqaradi.

Ne shaxdin ki, atbon xushnud emas,

Pushaymonligi ish chog'i sud emas/

Sipohdin judo shoh erur bir kishi,

Ne bo'lg'usidir bir kishining ishi.

Shohu xayl ma'shuqu oshiq kerak,
Ne ishkim, qilurlar muvofiq kerak.

[21,200]

Tadbirkorlikning yaxshi bir misoli Ardasher to'g'risidagi hikoyatda keltirilgan. Podshoh Ardasher Ardavonga qarshi urushishga majburan otlanganida dushmanning g'aflatga soluvchi bir xabarni unga yetkazib sulhga erishadi.

Bu hikoyatlarning qahramonlari, Chingizxon , Xorazmshoh, Sulton Abu Sayd, Ardasher real tarixiy shaxslardir. Hikoyatlardagi voqealar ham hayotdan olingan. Ikki yor hikoyatining mazmuni va yechimi garchi afsonaviy bo'lsa-da (Chingizxonning tush ko'rishi) Chingizxonning Xorazmshohni yengib, mamlakatda qatlam o'tkazgani tarixiy haqiqatdir. Xuroson va Movaraunnahr podshohi Sulton Abu Saidning fojiona qismati ham tarixiy faktdir.

Sulton Abu Said to'g'risidagi hikoyatni Navoiy o'z so'zlari bilan boshlaydi. U Abu Sayd Ko'ragonning kim ekanligini bildirib: "Shaxe kim ishi xurdadonlig' edi. Laqab otiga ko'ragonlig' edi" misralarini keltiradi. Bu voqeadan Navoiy shaxsan xabardor bo'lgan , u shoir yashagan zamonda yuz bergan edi. Ushbu kichik bir misol ham Navoiyning o'z dostonini davr va muhiti bilan mahkam bog'lab borgani uning o'sha davrda ma'lum amaliy ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Bu hulosasi hikoyatlarida maqsad qilib olingan g'oyalardan kelib chiqadi.

Chunonchi, Bahromgo'rning uch olachuq elida mehmon bo'lgani to'g'risidagi hikoyada, mehmondorchilik qoidalari to'g'risida so'z borsada, yana Bahromning oddiyligi uning kambag'al kishining dastarxonidan hazar qilmagani va unga shohona sovg'alar bergani ta'kidlab o'tadi. Navoiy Bahromning bu sifatlarini ta'riflabgina qolmay , balki ularni targ'ib ham qiladi. Hikoyaning asosiy personaji o'sha kambag'al mezbondir. Uning tadbirkorligi va sahiyligi qarshisida bir bahil boyni aqlsizligi, tubanligi yanada yaqqolroq ko'rsatilgan . Kambag'al mezbonning ulardan ustunligi namoyish etilgan .

Kampir va uning to'sinli daraxti to'g'risidagi hikoya ham g'oyatda diqqatga sazovordir. Unga ramziy yo'l bilan shoir to'g'rilikni tasvirlab , uning qanday

ajoyib natijalarga olib kelishini tasvirlaydi. Yana shoir podshohni to'g'rilikni qay darajada qadrlashi kerakligini o'sha to'g'ri tusunni oltinlar bilan bezab asrashida ko'rsatadi. Bu hikoyaning tuzilishi tartibida o'ziga hoslik bor. O'quvchi oxirgi misralargacha voqeaning tub mohiyatini payqamay boradi. Faqat o'sha to'g'ri to'sinning qasr markazida o'rnatilib husn oro bo'lib turganini va kampirning unga murojaat qilib, to'g'riligin tufayli o'zini ham meni ham oltinga ko'mding , deb hulosa qilganidan so'ngina o'quvchi asosiy fikrni anglaydi.

To'g'rilik hamisha qadrlanadi. Podshoh qasri faqat to'g'ri to'sinlar bilan bezalishi kerak , yani uning hokimiyati to'g'rilikka asoslanishi lozim . Shunday qilib ayrim hikoyalarda shohlar xatti-xarakatidan ayrim ko'rinishlar aks ettirilgan bo'lsa, boshqa hikoyatlarda garchi shohlar bosh o'rin tutmasa ham voqealar echimida ishtirok etadilar. Bu hikoyalarning tub mohiyati o'sha shohlar faoliyaga doir foydali maslahatlar yo'l- yo'riqlar ko'rsatishdan iboratdir .

“Saddi Iskandariy”da Majnunga oid ikki hikaya bor. Birinchisi, Majnunning saxroyillik paytlarida yoz issig'i va qish sovug'idan chekkan azoblari va hoyonat layli dargohidan panoh topgani to'g'risidadir.

Eshitdimki, majnuni sho'rida holki ,
Dash uzra sayr edi mohu sol...

Chu yoz bo'lsa vodiy tomug'din nishon
Ki , hurshid bo'lur erda otash fishon,
Anga voya ermas edi soyaye
Ki topmast edi soyadin voyaye.

Yoz faslida Majnunning ahvoliga judayam og'ir bo'ladi. Qishda uning ahvoli yoz fasliga nisbatan ayanchli bo'lishi o'z-o'zidan ma'lum . Bu hikoya undan oldingi bobda tasvirlanga , qish manzaralaridan keyin keladi . Shuning uchun undagi tasvirlarda qish chillasining qahraton sovuqlari , uning etni jimirlatuvchi izg'irinlari sezilib turadi.

Ana shunday qattiq sovuqdan istorob chekayotgan Majnun gulxanda borib isinishni xayoliga keltirmaydi biror yopiq maskanni ham orzu qilmaydi, faqat :

Bari mayli uyonki, layli edi,
Qayon layli ul so'zi mayli edi.

Xabar har qayon topsa mahbubidan
Chekib nola joni pur oshubidan

Urar edi eldek aning so'zi gom,
Sabo gul sori aylagandek hirom.

[21,229]

Shu ahvolda u Layli huzurida kirib boradi uning oyoqlari ustida jon beradi. Layli uning jasadini yashiradi , eldan nihon tutadi. Bu hikoyada Majnunning chekkan iztiroblari va achiq qismati uchun qishning, “bag’oyat sovuqligi “, atrofni ko’rgan qor uyumlari to’g’ri keladigan sharoit hisoblanadi. Navoiy bu tabiat tasviri bilan qahramonning holati o’rtasidagi moslik va o’xshashlikni ta’kidlash bilan cheklanmaydi, balki hikoyaning umumiy yo’li voqealarning oddiy mantiqidan chikinish ,o’z-o’ziga va kitobxonga nisbatan bunday deb xitob qiladi :

Kishi xurs tarkida bu nav kam
Topib, istasa xush, bo’lsin harom,

[21,230]

Yor oyoqlari ostida jon berishning o’zi oshiq baxtli hisoblanadi. Shuning o’zi Majnunning maqsadi. Bu fikrlar so’nggidan o’sha damni orzu qilib aytilgan misralar keladi:

Navoiyga , yarab qorayib et ani,
Qariyb etting ersa, nasib et ani.

[21,230]

Bu shoir qalbini to’ldirgan dardli tuyg’ularining kuchli tugyonidan ifodasidir. Navoiy ularni shunday lirik chekinishlarida izhor etgan. Shuning uchun ham bunday lirik chekinishlarida izhor etgan . Shuning uchun ham bunday lirik chikinishlar boshqa dostonlarga nisbatan “Saddi Iskandariy”da ko’proq uchraydi. Ammo, “Saddi Iskandariy”ning badiiy materiali, mavzui, undan ko’rsatilgan

voqealarning ruhi va mazmuni ortiqcha hissiy yondashuvini taqazo etmas edi. Shu sababga ko'ra Navoiy, hatto qish paytida Majnunning Layli huzurida jon berganini tasvirlagach, kichik bir lirik chekinishidan so'ng qish to'g'risida boshqa bir suhbatni tasvirlaydi. U Arastuning qish fasli, sovuq havoning inson jismi va ruhiga ta'siri to'g'risidagi ilmiy-tibbiy mulohazalarni keltiradi.

Navoiy dostonning boshqa bir joyida yana Majnun bilan Layli hikoyatini keltiradi. Ayriliq alamlarining og'irligi to'g'risidagi bobdan keyin shoir Majnunning Laylidan noma olib, o'zini halok etish fikridan qaytgani to'g'risida hikoya keltiradi.

Eshitdim ki, Majnuni Sahronovard
Ki, boshtin oyog'I edi so'zi dard.
Necha vaqt Laylidan erdi yiroq,
Tanin suzgurib erdi dog'i firoq,
Hamul shu'lai shavq tugyonidin,
Kechib erdi anduhlik jonidin.

[21,449]

Majnun Najd tog'I uzra chiqib u yerdan o'zini tashlab o'ldirmoqchi bo'lib turganda, unga Laylining yozgan xatini keltiradilar, Majnun xatni o'qib, o'z joniga qasd qilish niyatida bo'lganini unutadi. Bir necha yilgacha shu xatni o'z joniga payvand qilib yuradi, u bilan quvonib yashaydi.

Shu hikoyadan keyin keltirilgan hikmatda Arastu ishq taqazo qilgan ishni aql man eta olmasligi aytib o'tadi. Navoiy ishqning jonidan azizligini ta'kidlab o'tayapti. U deydi:

Erur jonsiz o'lmoq, o'limdan xatar,
Vale onsiz o'lmoq o'limdan batar

[21,449]

“Saddiy Iskandariy”ga ayrim hikoyalarda Navoiy turmushning xilma-xil ko'rinishlariga oid maslahatlar beradi. Chunonchi, xurosonlik ikki rafiq hikoyati,

tojir hikoyati, Mashriqdan ganj topgan kishi hikoyati, Luqmon hikoyati , ilgi (qo'li) kesilganning hikoyati kabilar shular jumlasidandir.

“Ikki rafiq” hikoyati quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Xurosonda bor erdi ikki rafiq,
Bo'lib rifq ila bir-birlariga shafiq.

[21,259]

Bu hikoya haqida Navoiyshunos olim Aziz Qayumov quyidagi fikrlarni aytib o'tadi: “bu hikoya bevosita mualifning o'zidan kelib chiqmoqda. Hikoyani shoir “eshitdimki...”deb boshlamagan . Demak, mualif bu o'rinda o'zi guvoh bo'lgan voqeani bayon etmoqchidir. Ikki rafiqning Xurosonda yashagani ham bu taxminni quvvatlaydi. Yana bu fakt o'sha xodisaning makonini ham ochiq ko'rsatadi. Bu hikoya zamiridagi voqeani bayon qilar ekan, shoir yo'l –yo'lakay ta'lim-tarbiyaga oid ayrim umumlashmalarni izhor eta boradi. Ikki rafiqda tirikchilikda qiyinchilik paydo bo'ladi. Biri boshqa ellarga yo'l oldi, ikkinchisi esa o'z yurtida qoldi”. Bu voqeadan Navoiy bunday xulosa chiqaradi:

Musofir safrga topib ixtisos ,
Burun hud muzallatdin o'ldi xalos .

Musafirat qilgan rafiq Yunon va Hind ellarida bo'lib, u yerlarda ilmi va qobilyati tufayli obro' topadi , ikkinchi rafiq bundan ogoh bo'lib do'stining huzuriga keladi va ularning ishlari rivojlanib ketadi. Shoir bu hikoyada har doim tanazzul ko'rgan kishi o'z yurtidan chiqib ketsa , demoqchi emas , u umuman , safar xosiyati to'g'risida so'zlab, tanazuldan qutilishning bir yo'lini ko'rsatmoqda . Shoirning butun intilishlari kishilarga qay yo'sinda bo'lmasin biror yengillik bag'ishlash ularning mushkul holatlaridan eson-omon olib chiqib ketishga qaratilgan [21,385]. Shuning uchun ham kishilarga xayrixohlik bilan to'la misralar ayniqsa, ta'sirli jaranglaydi:

Kishi uzluqi mulkidin qilsa sayr,
Anga oqibat aylasun Tengri xayr.

Bu fikrni shoir “Mashriqda ganj topgan kish” hikoyati ifoda qiladi .

Birov topdi Mashriqda ganji shigarf ,

Yozig'liq eshigida bu turfa harf .

Ki, har kim ki , bu ganjni topdi jazm,
Agar qilsa Mag'rib diyoriga azm.

Falon yerda mundin ulug' ganj erur,
Anga kim qadam urdi noranj erur

[21,390]

Buni o'qigandan keyin u kishi uzoq yo'lga o'tlanadi. U necha yil daryo , dashtlarni o'tib, yuz xil balou sarguzashtlarni boshidan kechirib, aytilgan yerga yetib keldi. Ammo bu yerda “boshga yetishti sarosar ajal” ya'ni uning boylik uchun o'lim yakun topdi. Shoir bu hikayadan shunday xulosaga keladi:

Ne mundin edi bar , ne andin dosh,
Mashaqat chekib kechti jondin dog'i

Emas shohlik , olmoq yurib bahru bar ,
Erur totmoq andin –ki , haq berdi, bar

[21,387]

Yuqorida aytilganidek, oldingi hikoya safarning foydasi, uning mazmuni qanday bo'lishi kerakligini tushuntirsa, bu hikoya ochko'zlik tamagirlik maqsadida qilinadigan safarni qoralaydi. Undan tashqari oxirgi ikki misrada Navoiyning harbiy yurishlari , bosqinchilik urushlarini keskin qoralab, norozi bo'lgani sezilib turadi. Dengizu qirg'oqlarni bosib olmoq shoxlik emas balki, haq bergan mahsuldan baraka, unum topmoq asl shohlik, deb aytib o'tadi Navoiy .

Shahon mulkiga hirs qoymaslik, o'tkinchi molu dunyoga befarq qarash to'g'risidagi fikrlar Luqmon hikoyasi ochiq va aniq bayon etilgan . Hikoya bunday boshlanadi:

Eshitdim ki, Luqmonga davron aro,
sukun erdi bir kunji vayron aro.

Uzoq umr ko'rgan Luqmon umri davomida tashlandiq vayronada umr o'tkazadi. Buning sababini so'rganlarida , u deydi:

Ki , chun qilmadi mayl olmag'a hech,
Meni ul dog'i solmag'ay g'amg'a hech.
Muni ko'r ki davrondin eltur, chog'i ,
Olur mendin ushbu buzug'ni dog'i.
Chu oxir adam sari qoyg'um qadam,
Manga bordur ortug' bu vayrona ham.

Luqmon hikoyasi ko'proq hikmatga o'xshab ketadi. Bu misralarda Luqmon vayronaga yashaganligining sababini tushuntirib beradi. Luqmon shuncha yil yashab dunyoga, boylikka hirs va mehr qoymagan. Chunki inson dunyodan o'tayotganda bu narsalarni o'zi bilan olib ketolmaydi. Bu hikoyaning mazmuni Iskandarning dunyodan bo'sh qo'l bilan ketgani tasvitlovchi hikoyaga yaqindir. Inson hech narsani dunyodan o'zi bilan olib ketolmaydi. Luqmon aytganidek, hatto bir buzug vayronani ham dunyo undan tortib oladi. Shuning uchun kishi molu boylikdan qancha uzoq bo'lsa, shuncha u dunyo g'amidan ozod bo'ladi.

Iskandar "Saddi Iskandariy"da mohiyatan o'zgarmaydi, ya'ni uning taxtu tojiga beparvoligi oxirigacha saqlanadi. Jahonni olganda ham u dunyo, molu mulk, taxtu toj bir kunlik tashvish va g'aminga arzimaydi, degan gado darveshning hikmatini esidan chiqarmaydi, balki bunga ko'proq iqror bo'la boradi. Mana, uning o'limi oldidan onasiga yozgan xatidan bir parcha:

Ramimdan alam xuznidin fard bo'l,
Bori olam ahliga hamdard bo'l.

Necha sarvari baxti farxundasen,
Alar bandadur, sen daga bandasen,

Kerak bandaga ish safarkandalik,
Ne haqdin kelur aylamak bandalik.

Nekim haq, rizosi-rizomand bo'l,
Qazo har nekim bo'lsa, xursand bo'l.

Shuning uchun Iskandar qo'lini tubdan chiqarib qoyishni vasiyat qiladi, toki
olam ahli qoyil qolib ibrat olsun:

Ki el solib ul sori hayrat ko'zi,
ne hayrat ko'zi balki ibrat ko'zi...
Kafi ichra oldi jahon kishvarin,
Baru baxrning la'l ila gavharin.
Chu urdi ajal ilgi, tabli raxil,
Bak, o boyniga soldi xabil raxil,
Jahondin shal misoli borur,
Nechukkim chinor ilgi-xoli borur.

Jahondan hech narsa olib ketolmaysan, shu bois dunyoga qattiq ko'ngil
bo'shama- bu g'oya mutafakkirlari asrlariga chuqur sungib ketgan.

Navoiy bu fikrlarini turli o'rinlarida turlicha ifoda etgan . Ularning qayta-
qayta takrorlanishi shoirning Iskandar faoliyatiga bo'lgan munosabatini aniqlashga
yordam beradi. Luqmon hikoyasining Iskandar vafoti tasvirlovchi boblar o'rtasida
keltirilishi ham tasodifiy emas. Dunyo sha'nu shavkatiga ortiqcha mayl qoyish
behudadir. Inson o'z tafakurining mukamalligi bilan haqiqiy inson bo'ladi. Buning
uchun esa u doimo hayotni kuzatib borishi, uning saboqlarini tushunib olishi,
barchadan ibrat ola bilishi lozim. Ibratomus holatlar doimo bo'lib turadi. Hatto
johillardan ham ko'p narsani o'rganish mumkin.

Ba'zi hikoyalarda Navoiy inson ahvoli ruhiyatining g'oyat murakkab va
nozik tomonlarini ochishga qaratilgan voqealarni tasvirlaydi. Ularda
umumbashariyat , jamiyat hayotiga oid falsafiy yakunlar bo'lmasa-da, inson

xarakteri, uning xilma-xil tomonlarini ko'rsatuvchi belgilar o'rin olgan. "Ilgi kesilgan kishi" hikoyasi bunga yaqol dalil bo'la oladi. Hikoya bunday boshlanadi:

Eshitdim ki, bor erdi bir notovon,

Falak zulmidin qismi ranju havon

Unga tuhmat qilib bir qo'lini kesadilar. U bardosh berib chidaydi, hech kimga bir so'z demay, yugurib, shahardan chiqib ketadi. Bir vayronada o'ziga o'xshash qo'li kesilganlarni ko'rgach:

Kesuk ilgini tashlabon, chekti voy,

Alar ichra ham tushti ko'p hay-hay.

Bu inson qalbi, xarakterining muhim belgisidir. Kishi faqat uning dardini tushuna biladigan, o'zi ham shunday alamni chekib ko'rgan kishigagina yuragidagi dardu alamini ochiq izhor etadi. Unga faqat o'ziday dard chekkan kishilargina hamdard bo'la oladilar. Navoiy anashu fikrni bayon qilib yozadi:

Kishi topsa hamdardini nogahon,

ne imkon, nihon dardini qilmoq nihon.

Shu fikrlar bilan hikoya yakunlanadi.

Hikoyalar ba'zan masal shaklida ham keladi. "Bulbul va zog", "Baliqlar hikoyati", "Kabutar" hikoyatlari shu jumladandir. Bu she'riy shakl fikrni yanada oydinroq, ta'sirliroq anglatishga, xulosalarni yanada umumiy va kengroq bo'lishiga xizmat qilgan.

Dostonda yigitlik davri va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritilgan va shu o'rinda bulbul va zog' hikoyati keltirilgan. Hikoyada bulbul yilning bir oyida gullar orasida nolayu avg'on chekadi. Buni kuzatib yurgan zog' undan so'raydi: Sen nima uchun o'n bir oy chamanda xazin va mayus kezasan, bir oyda buncha jo'shib kuylaysan, chamandagi boshqa qushlardan uyalmaysanmu? Shunda bulbul:

Dedi bulbul: "Ey ishqdin bexabar,

Mening kuymagimdin sanga ne habar?

Chu gul yo'q turur o'n bir oybog' aro,

Erur ro'zg'orim seningdek qaror.

G'amu dard erur menda laylu nahor,
Va lekin chu esdin nasimi baxor.
Gul etti chiqib jilvaoyin yana,
Tikib jaybivg'a nafai chin yana .
Chu gul qildi bu nav zebi jamol,
Qachon qolg'ay ul lahza bulbulg'a hol?!

[21,406]

Bu hikoyada bahorda ochiladigan gullarga shaydo bo'lgan bulbul gullar ochilgandagina jo'shib kuylaydi. Gullarning xushbo'y hidlari va rangorangligi unga ilhom beradi. Yigitlik davri ham bahorga o'xshatiladi. Hikoyadagi ramziylik ma'nosi shunda .

“Baliqlar hikoyati” hammasi xarakteridagi hikoyatlarga kiradi, yani ramziy xarakterga ega. Suvda yashaydigan baliqlar suvni ko'rishni orzu qiladilar . Shunda baliqlardan biri ancha uzoqroqda katta girdob borligi va u yerda suv shiddat bilan oqishini aytadi. Bu katta girdobda nahang baliqlar ham suvda suzishi haqida aytib o'tadi. Baliqlar buni eshitib , girdob sari yo'l oldilar. Girdob shiddat bilan uni o'z domiga oladi va shu payt nahang baliq paydo bo'lib ularni o'z komiga tortadi. Shundagina baliqlar bundan oldin ham ular suvda suzib yurganlarini tushunib yetadilar. Ammo afsuski endi ancha kech bo'lgan edi. Hikoya oxirida Alisher Navoiy shunday misralarni keltiradi:

Netarsan tilab har ajoyibqa iyishl,
Ajoyib erur senda, ogoh bo'l!
Burunroqqi sud etmagay har nadam,
O'zungni bilib , yo'lg'a qoyg'il qadam.

[21,429]

Demak, har bir ishni qilishdan oldin uning mohiyatini tushunib keyin uni amalgam oshirish kerak.

“Kabutar” hikoyasi ham o'ziga xos xususiyatga ega . Unda shohning oltin qafasida uzoq yillar tutqun bo'lgan kabutar haqida hikoya qilinadi . Kunlardan bir kun u qafasdan qochib qutiladi va o'z uyiga ravona bo'ladi. Lekin uning uyi

vayronaga aylangan bo'ladi. Kabutar vayronaga aylangan uyini topib , u yerda charx urib aylanadi:

Ki, ma'nus erur garchi vayranadur,
Netay shoh qasrimki, begonadur .
Erur qushqa xushroq uch boqsang ayong,
Murassa qafasdin tikan oshyon

[21,473]

Donishmandlarimiz bekorga o'z uying o'lan to'shaging deb aytishmagan. Oltin qafasdan ko'ra oddiy, xaroba bo'lsa ham o'z uying afzal.

Podshohga nasihat qilgan gado haqidagi hikoyat ham katta tarbiyaviy va ta'limiy xarakterga ega. Bunda bir oddiy , uysiz, qashshoq gado podshohga nasihat qilmoqchi bo'ladi. Shunda bir kishi uni ko'rib, sen gado bo'lsang shohga qanday qilib nasihat berishga hadding sig'di, deydi. Gado shunday javob beradi:

Dedi nuqtapardozi Isonafas
Ki : “Gar men haqir ersam andoqqi has.
Sanga bor esa so'z bilurdin mazoq,
O'zum sori boqma, so'zim sori boq!
Kerak bo'lsa so'z, oylakim, durri pok,
Sadafdek haqir o'lsa qoyil, neb ok?
Manga ham agar nuqtada tez esam,
Qamish no'g'idin otashengez esam.
O'zum nechakim zoru pojmurdamen,
Lagad ko'bi gardundin ozurdamen.
Hamonoki so'z poku sofiydurur,
Adobsizlig'img'a talofiydurur”

[21,556]

Javobdan shunday xulosaga kelishi mumkinki, insonlarga kiyinishi, mansabi, boyligiga qarab emas uning aqlu zakovati va aytgan so'zlarining ma'noliligi bilan baho berish lozim.

Shunday qilib, dostonidagi hikoyalarda Navoiy hayotining turli-tuman masalalarni ko'taradi. U davlat va hokimiyatga, xalqqa munosabat, boshqarish qoidalari, kishilar o'rtasidagi sadoqat, vafodorlik, molu dunyoga munosabat va boshqa hayotning xilma-xil ko'rinishlariga oid ezgu o'gitlarni izhor etadi. Ular barchasi kishilarni mukammal insoniylikka undovchi, ularning tafakkurini boyituvchi qimmatli pandu nasihatlar hisoblanadi.

XULOSA

“Saddi Iskandariy” dostoni xalqning ezgu orzu- niyatlarini, uning chuqur ifodalovchi asar sifatida son sanoqsiz kitobxonlar qalbidan o’rin olgan . Chunki Alisher Navoiy qadimdan boshlab o’zi yashayotgan davrgacha bo’lgan turkiy adabiyotning barcha g’oyaviy –badiiy yutuqlarini o’z asarlarida mujassamlashtiradi . Shuning uchun Navoiyning so’z , fikr va tuyg’u tasvirlari o’quvchi qalbiga boshqacha boshqacha ta’sir o’tkazadi. Navoiy asarlarini o’qigan odam , o’zi istasin , istamasin haqiqat mushohadasiga seza boshlaydi va olam hodisalarini ham zohiran, ham botinan chuqur bilishga intiladi. Komillik sirlarini bilib oladi.

Prezidentimiz e’tirof etayotgan barkamol avlod Navoiy orzu qilgan va madh qilgan komil insondir .

Alisher Navoiy dostonida Iskandar obrazi orqali umrni savob ishlarga bag’ishlashni, dunyo ne’matlaridan bahramand bo’lib yashashni, boshqalarga har doim yordam berishni, saxovat va adolatni unutmaslikni, ilmu hikmat o’rganishdan charchamaslini, el-yurti obod qilishda hissa qo’shishni , Ollohni yodda tutish va ilohiy ma’rifatga yetishish uchun harakat qilishni ko’rsatib beradi.

Mumtoz adabiyotning o’ziga xos an’analari mavjud. Asar tarkibiga boshqa janrdagi asarlarning keltirilishi, “Saddi Iskandariy” dostonida ham hikoya va hikmatlar keltirilib, asarning ta’sirchanligi o’qimishligi oshirilgan . Biz referativ ishimizda “Saddi Iskandariy ” dostonidagi hikoya va hikmatlarni o’rganib , ularni tahlilga tortishga harakat qildik. Tahlil jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. “Saddi Iskandariy” dostoni Alisher Navoiyning shoir, olim, ruhshunos sifatidagi ijobiy iste’dodini ko’rsatuvchi g’oyaviy – badiiy jihatdan mukammal asar hisoblanadi.

2. “Saddi Iskandariy ” dostoni Nizomiy Ganjaviy ,Xusrav Dehlaviy , Abdurahmon Jomiylarning asarlari ta’sirida maydonga kelgan .

3. Iskandar obrazi orqali Navoiy o’zi orzu qilgan komil shoh siymosini ko’rsatib bera olgan .

4. Dostonda Qurg'onning Qahf surasida Iskandar haqida berilgan ma'lumotlarga asoslangan.
5. Dostonda 17 ta hikoyat va ular asosida hikmatlar keltirilgan.
6. Har bir hikoya o'ziga xos xususiyatiga ega.
7. Dostondagi hikoyatlar asosida shoir kitobxonda katta zavq berish orqali insonparvarlik ruhidagi qarashlarini singdira olgan.
8. Shoir dostonda hikoya va hikmatlar keltirib, asar o'qimishliligiga va ta'sirchanligiga erish olgan.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod orzusi» Toshkent: «Sharq» nashriyoti, 1999.
2. Karimov I.A. «Bizdan ozod va obod vatan qolsin» Toshkent: «O'zbekiston» nashriyoti, 1996 yil.
3. Vohidov R., Mahmudov M. «Ma'naviyat–komillik saodati». –Toshkent: Ma'naviyat, 1997.
4. Vohidov R., Mahmudov M. «Iymon qalb gavhari. Adabiy falsafiy o'ylar» – Toshkent: Ma'naviyat, 1999.
5. Vohidov R, Eshonqulov X. «Mumtoz adabiyot –hikmat xazinasini » -Buxoro: Buxoro, 2001.
6. Vohidov R., Ne'matov X., Mahmudov M. «So'z bag'ridagi ma'rifat» -Toshkent: Yozuvchi, 2001.
7. Karomatov H. «Qur'on va o'zbek adabiyoti» -Toshkent: Fan, 1993.
8. Komilov N. «Iskandar payg'ambar bo'lganmi? Navoiyga armug'on (beshinchi kitob)» -Toshkent: Fan, 2006, 3-9 betlar.
9. «Navoiy va ijod saboqlari» -Toshkent: Fan, 1991.
10. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami, 20 tomlik, 7-tom. «Xamsa». «Hayrat ul-abror» -Toshkent: Fan, 1991.